

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

NURMANOV SOBIR SODIQOVICH

**KOMBINATSIYALASHGAN HAYDOV AGREGATINI ISHLAB CHIQISH
VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Nurmanov Sobir Sodiqovich

Kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini
asoslash..... 3

Нурманов Собир Садикович

Разработка и обоснование параметров комбинированного пахотного
агрегата..... 19

Nurmanov Sobir Sodiqovich

Development and justification of parameters of a combined arable
unit..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 39

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMYIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMYIY-TADQIQOT INSTITUTI**

NURMANOV SOBIR SODIQOVICH

**KOMBINATSIYALASHGAN HAYDOV AGREGATINI ISHLAB CHIQISH
VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/T2319 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasi www.qxmiti.uz va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

To'xtaqo'ziyev Abdusalim
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tolibayev Alpisbay Yerjanbayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Xudoyarov Anvar Nazirjonovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "29" 05 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (497 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil "12" 05 dagi № 55 raqamli reestr bayonnomasi).



A.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

B.P.Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d., katta ilmiy xodim

R.R.Xudaykuliye

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.n., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish hamda ulardan yuqori hosil olish uchun tuproqqa ishlov berish mashina va agregatlarini takomillashtirish, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinni egallamoqda. “Hozirda dunyo miqyosida turli qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yetishtirish uchun har yili 1,6 milliard gektardan ortiq maydonga ishlov berilishi”ni hisobga olsak¹, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor tuproqqa ishlov beradigan mashina va qurilmalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Ushbu yo‘nalishda rivojlangan xorijiy davlatlarda, jumladan AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Angliya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi, va Xitoyda ma‘lum yutuqlarga erishilgan bo‘lib, ularda yerlarni shudgorlash va ekish oldidan ishlov berishda traktorning oldi va orqasiga osiladigan ishchi qismlardan tashkil topgan kombinatsiyalashgan mashinalar va agregatlarni qo‘llashga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda yerlarga ishlov berishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda daladan bir o‘tishda texnologik jarayonlarni qo‘shib bajaradigan kombinatsiyalashgan mashina va agregatlarni yaratish hozirgi kunning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanmoqda. Jumladan, kam energiya sarflagan holda yerlarni shudgorlashga tayyorlash va shudgorlash bo‘yicha barcha texnologik jarayonlarni qo‘shib bajaradigan kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va u ish organlarining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashishida resurstejamkorlikni ta’minlaydigan parametrlarini asoslashga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish hamda yuqori ish sifati unumiga ega qishloq xo‘jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan tuproqqa ishlov berishda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta’minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, yerlarni shudgorlashga

¹ <https://www.fao.org/3/i1688r/i1688r03.pdf>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

tayyorlash va shudgorlash bo'yicha barcha texnologik jarayonlar (dalalar yuzasidagi marza va egatlar kabi notekisliklarni tekislash va shudgorlash)ni qo'shib bajaradigan kombinatsiyalashgan mashina ishlab chiqish va uning ishchi qismlarining yuqori ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2021-yil 3-fevraldagi PF-6159-son "Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410 son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-yanvardagi 45-son "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash sohasida ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tuproqqa asosiy ishlov berishda qo'llaniladigan kombinatsiyalashgan haydov agregatlarini yaratish va qo'llash, ularning ratsional parametrlarini asoslash va ish ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha xorijda V.G.Kiryuxin, A.Sh.Kasimov, V.V.Zolotarev, A.N.Yurin, A.V.Kitun, A.N. Ploshadnov, P.Yu.Yakovlev, A.I.Panov, I.E.Donsov, I.M.Bartenev, P.I. Popikov, A.A. Pereslavsev, Ye.I. Galkin, P.P.Gamaleyev, A.S.Zeygerman, A.D.Kistechok, V.T.Nadikto, V.Bulgakov, V.B.Mitkov, A.V.Vashula, M. Rousselent, Dr. Karlheinz Köller, H.Traulsen va boshqalar shug'ullanishgan.

Respublikamizda tuproqqa ishlov berish, ekish, ekinlarni parvarishlash, qator oralariga ishlov berish kabi agrotexnik tadbirlarni bajarishda qo'llaniladigan kombinatsiyalashgan mashinalarni yaratish bo'yicha R.I.Boymetov, A.To'xta'qo'ziyev, A.A.Axmetov, F.M.Mamatov, B.M.Xudayarov, B.To'laganov, F.G'aniyev, M.T.Mansurov, A.N.Xudoyarov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan mashina va qurilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Lekin bu tadqiqotlarda traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur ish Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining (09/2023.1.1) “Kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” (2022-2023 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va agregat diskli yumshatkichining parametrlarini asoslash orqali ish sifati va unumini oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

yerlarga asosiy ishlov berishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va texnik vositalarning hamda ular bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning tahlili;

traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatining konstruktiv sxemasini ishlab chiqish;

diskli yumshatkichning o‘simlik qoldiqlari va tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonini ifodalovchi va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan matematik modellar va analitik ifodalarni olish;

agregat ish ko‘rsatkichlarini diskli yumshatkichning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlarini o‘rganish hamda ularni ifodalovchi regressiya tenglamalarini olish;

diskli yumshatkich parametrlarining ratsional qiymatlarini asoslash;

traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan agregatning tajriba nusxasini tayyorlash, uning agrotexnik hamda energetik ish ko‘rsatkichlarini o‘rganish va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregati va uning texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti. Kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonini ifodalovchi analitik bog‘lanishlar va matematik modellar hamda diskli yumshatkichning agrotexnik va energetik ish ko‘rsatkichlarini uning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqotning usullari. Ish jarayonida nazariy tadqiqotlar nazariy mexanika va oliy matematikaning asosiy qoidalari qo‘llanib, eksperimental tadqiqotlar esa dala sharoitida ishlab chiqilgan tajribaviy qurilmalar hamda eksperimentlarni matematik rejalashtirish va tenzometriya usullari hamda mavjud me‘yoriy hujjatlarda (ГОСТ 20915-11, О‘zDSt 3193.2017, О‘zDSt 3355.2018, ПД Уз 63.03-98) keltirilgan usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatining konstruktiv sxemasi yerlarni shudgorlashga tayyorlash (dala yuzasidagi egat va marzalar ko‘rinishidagi notekisliklarni tekislash, o‘simlik qoldiqlarini maydalash) va

shudgorlash jarayonlarini qo‘shib bajarish shartidan ishlab chiqilgan.

diskli yumshatkich ish organlarining diametri, ishchi sirtining egrilik radiusi, ular orasidagi ko‘ndalang va bo‘ylama masofalar belgilangan texnologik jarayon talablar darajasida sifatli va unumli bajarilishi shartlaridan aniqlangan;

kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining belgilangan chuqurlikka botib ishlashi hamda uning to‘g‘ri chiziqli harakatini ifodalovchi analitik bog‘lanishlar traktor oldingi va orqangi osish mexanizmlarining sxema va parametrlarini hisobga olgan holda keltirib chiqarilgan;

diskli yumshatkichning bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko‘ndalang masofa, u ish organlarining harakat yo‘nalishiga va tikka nisbatan o‘rnatilish burchaklarining maqbul qiymatlari hamda agregat harakat tezligi uning agrotexnik va energetik ko‘rsatkichlarini baholovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqotlar natijasida kombinatsiyalashgan haydov agregati ishlab chiqilgan va u diskli yumshatkichining parametrlari asoslangan;

asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan kombinatsiyalashgan haydov agregati fermer xo‘jaliklarida yerlarni shudgorlashda qo‘llanilganda shudgorlash sifatini oshirgan hamda ekspluatatsion xarajatlarni 21,98 foizga kamaytirgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usullar va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, kombinatsiyalashgan haydov agregatining parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda oliy matematika, nazariy mexanikaning asosiy qoida va usullariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida kombinatsiyalashgan haydov agregati ishlab chiqilganligi, uning dala sinovlarining natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining sifat va energetik ko‘rsatkichlarini uning parametrlariga bog‘liqligini ifodalovchi analitik bog‘lanishlar olinganligi va ulardan boshqa shunga o‘xshash qurilma va ish organlarini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan haydov agregati qo‘llanilganda shudgorlash sifatining yaxshilanishi, energiya tejamkorlikni ta‘minlanishi, ekspluatatsion va moddiy xarajatlar hamda mehnat sarfini kamayishi olingan natijalarning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

kombinatsiyalashgan haydov agregatiga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellectual mulk markazi” davlat muassasining “Kombinatsiyalashgan shudgorlash agregati”, FAP 2508 raqamli foydali modelga patenti olingan

(O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 7-avgustdagi 05/04-04-379-son ma’lumotnomasi). Natijada taklif etilayotgan kombinatsiyalashgan haydov agregatining konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan haydov agregati Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tajriba xo‘jaligi va Toshkent viloyati, Chinoz tumani “YULDUZ” va “CHINOZ-OLMOS AGRO” fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 7-avgustdagi 05/04-04-379-son ma’lumotnomasi). Natijada yerlarni shudgorlashda umumiy xarajatlar 21,98 foizga, mehnat sarfi esa 31,83 foizga kamaygan;

taklif etilgan kombinatsiyalashgan haydov agregatining sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki dalablar, texnik topshiriq, va chizmalar) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 7-avgustdagi 05/04-04-379-son ma’lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan kombinatsiyalashgan haydov agregatining sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk markazi” davlat muassasining foydali modelga patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy-tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi hamda ilmiy-tadqiqot ishining dissertatsiya amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Vazifaning qo‘yilishi va tadqiqot ishining maqsadi”**

deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda tuproqqa asosiy ishlov berish usullari va texnika vositalari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, kombinatsiyalashgan mashina va agregatlarning turlari, O‘zbekistonda va xorijda traktorning oldiga va orqasiga osiladigan ishchi qismlardan tashkil topgan tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar bo‘yicha bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan va ular asosida tadqiqotning vazifalari shakllantirilgan.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda va xorijiy mamlakatlarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida traktorning oldiga osiladigan diskli yumshatkich va orqasiga osiladigan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan haydov agregatining ish jarayoni va parametrlarini nazariy asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobida kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslashga doir o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.


O‘tkazilgan ilmiy-texnik adabiyotlar tahlili hamda olib borilgan izlanishlar asosida kombinatsiyalashgan haydov agregati traktor 1 ning oldi va orqasiga osish mexanizmlari 2 va 3 ga osilgan diskli yumshatkich 4 va plug 5 dan hamda diskli yumshatkichning orqa qismiga o‘rnatilgan tishli tekislagich 6 dan iborat etib ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Kombinatsiyalashgan haydov agregatining konstruktiv sxemasi

Kombinatsiyalashgan haydov agregatining ish jarayoni quyidagicha kechadi: agregat dala bo‘ylab harakatlanganda traktorning oldiga osilgan diskli yumshatkich dala yuzasidagi egat va marzalar ko‘rinishidagi notekisliklarni tekislaydi, dala yuzasida qolgan o‘simlik qoldiqlarini maydalaydi, tekislagich esa diskli yumshatkichning ish jarayonida hosil bo‘lgan notekisliklarni tekislab ketadi. Shundan keyin plug tomonidan ishlov beriladi.


Quyidagilar kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining asosiy parametrlari hisoblanadi (2-rasm): disklarning harakat yo‘nalishiga α va tikka β nisbatan o‘rnatish burchaklari, °; disklarning diametri D , m; disklar ishchi sirtlarining



1-rama; 2-diskli ishchi organ; 3-tayanch g'ildirak
2-rasm. Diskli yumshatkichning asosiy parametrlari

egrilik radiusi R , m; birinchi va ikkinchi qatorga o'rnatilgan disklar orasidagi masofa l , m; bitta qatorga o'rnatilgan disklar orasidagi ko'ndalang masofa m , m; birinchi va ikkinchi qatorga o'rnatilgan disklar orasidagi bo'ylama masofa L_b , m. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar ko'rsatishicha diskli yumshatkich ish organlarining diametri va ular ishchi sirtlarining egrilik radiusi mos ravishda kamida 533 va 631 mm, birinchi va ikkinchi qatorga o'rnatilgan disklarining aylanish markazlari orasidagi ko'ndalang masofa kamida 6,3 cm, bitta qatorga o'rnatilgan ish organlari orasidagi ko'ndalang masofa ko'pi bilan 30,1 cm, birinchi va ikkinchi qatorga o'rnatilgan ish organlari orasidagi bo'ylama masofa kamida 83,4 cm bo'lishi lozim.

Kombinatsiyalashgan haydov agregatining diskli yumshatkichi belgilangan chuqurlikka botib ishlashi uchun $N > 0$ (bunda N – tuproqning diskli yumshatkichning tayanch g'ildiraklariga reaksiya kuchi) bo'lishi lozim. Bunda diskli yumshatkichning tayanch g'ildiraklari doimiy ravishda dala yuzasiga bosib turiladi va natijada u belgilangan chuqurlikka botib va ishlov berish chuqurligini o'zgartirmasdan ishlaydi. 3-rasmda keltirilgan sxemaga binoan reaksiya kuchini aniqlaymiz:



3-rasm. Kombinatsiyalashgan haydov agregatining diskli yumshatkichiga ta'sir etayotgan kuchlar


$$\begin{aligned}
N = & \sqrt{1 + \mu^2} \left\{ (m_{yu} g - R_z) \times \frac{H_{pyu} \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2}}{(H_{pyu} - Z_B) \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - (H_d - H_{tsh} - h) X_B} \times \right. \\
& \times \left[\sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - X_B \right] + m_{yu} g l_{yu} - R_z (l_o + 0,5L_d) + R_x [H_d - \rho_d - \\
& - \frac{H_{pyu} (H_d - H_{tsh} - h_{yu})}{(H_z - Z_B) \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - (H_d - H_{tsh} - h)} \times \\
& \left. \times \left[\sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - X_B \right] \right\} : \\
& \left\{ L_m + \frac{H_{pyu} \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2}}{(H_{pyu} - Z_B) \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - (H_d - H_{tsh} - h) X_B} \times \right. \\
& \times \left[\sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - X_B \right] - \mu (H_d - h - 0,5D_m) - \\
& - \frac{H_{pyu} (H_d - H_{tsh} - h)}{(H_z - Z_B) \sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - (H_d - H_{tsh} - h)} \times \\
& \left. \times \left[\sqrt{l_b^2 - 0,25(l_p - l_t)^2 - (H_d - H_{tsh} - h)^2} - X_B \right] \right\}, \quad (1)
\end{aligned}$$

bunda μ – diskli yumshatkich tayanch g‘ildiraklarining dumalashga qarshilik koeffitsienti; m_{yu} – diskli yumshatkichning massasi, kg; g – erkin tushish tezlanishi, m/s²; R_x – diskli yumshatkich ish organlarining tortishga qarshiligi, N; R_z – diskli yumshatkichning ish organlariga tuproqning tik reaksiya kuchi, N; H_{pyu} – diskli yumshatkichning pastki va yuqorigi osish nuqtalari orasidagi tik masofa, m; l_b – traktorning oldingi osish qurilmasi pastki tortqilarining uzunligi, m; l_p – diskli yumshatkichning pastki osish nuqtalari orasidagi ko‘ndalang masofa, m; l_t – traktorning oldingi osish qurilmasi pastki tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi ko‘ndalang masofa, m; H_d – diskli yumshatkichning tayanch tekisligidan uning pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, m; H_{tsh} – traktorning tayanch tekisligidan uning osish qurilmasi pastki tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlarigacha bo‘lgan tik masofa, m; h – diskli yumshatkich diskklarining tuproqqa botish chuqurligi, m; X_B, Z_B – traktorning oldingi osish qurilmasi pastki va markaziy tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlari A va B orasidagi bo‘ylama va tik masofalar, m; l_{yu} – diskli yumshatkichning osish nuqtalaridan uning og‘irlik markazigacha, ya’ni G_{yu} kuch qo‘yilgan nuqttagacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m; l_o – diskli yumshatkichning osish nuqtalaridan uning ikkinchi qatorda joylashgan ish

organlarining aylanish markazlarigacha bo'lgan bo'ylama masofa, m; L_d – diskli yumshatkichning ish organlari orasidagi bo'ylama masofa, m; ρ_d – diskli yumshatkichning tayanch tekisligidan R_x kuchi qo'yilgan nuqttagacha bo'lgan tik masofa, m; L_m – diskli yumshatkichning osish nuqtalari C va D dan uning tayanch g'ildiraklarining aylanish markazigacha bo'lgan bo'ylama masofa, m; D_m – diskli yumshatkich tayanch g'ildiragining diametri, m.

$N > 0$ shart va demak diskli yumshatkichning belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va shu chuqurlikda bir tekis yurishi asosan uning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa H_d ni to'g'ri tanlash hisobiga ta'minlanadi.

Ishlab chiqilgan haydov agregatining to'g'ri chiziqli harakatini ta'minlash muhim masala hisoblanadi va diskli yumshatkich va plugning pastki osish nuqtalari orasidagi l_1 va l_2 masofalarni to'g'ri tanlash hisobiga ta'minlanadi (4-rasm) va ularni aniqlash uchun quyidagi ifodalar keltirib chiqarildi



4-rasm. Kombinatsiyalashgan haydov agregatining to'g'ri chiziqli harakatini ta'minlashga doir sxema

$$l_1 = CD = \left(1 + \frac{l_{1b}}{\sqrt{c_1^2 + (0,5k_1)^2}} \right) k_1 \quad (2) \quad \text{va} \quad l_2 = MN = \left(1 + \frac{l_{2b}}{\sqrt{c_2^2 + (0,5k_2)^2}} \right) k_2 \quad (3)$$

bunda l_1, l_2 – mos ravishda diskli yumshatkich va plugning pastki osish nuqtalari orasidagi masofalar, m; l_{1b}, l_{2b} – mos ravishda traktor oldingi va orqangi osish mexanizmlari pastki bo'ylama tortqilarining uzunliklari, m; c_1, c_2 – mos ravishda traktor oldingi va orqangi osish mexanizmlari pastki bo'ylama tortqilarining qo'zg'almas sharnirlari A va B hamda K va L dan u g'ildiraklarining bosim markazi II_t gacha bo'lgan bo'ylama masofalar, m; k_1, k_2 – mos ravishda traktor oldingi va orqangi osish mexanizmlari pastki tortqilarining qo'zg'almas A va B hamda K va L sharnirlari orasidagi ko'ndalang masofalar, m.

3 va 4 klassdagi g'ildirakli haydov traktorlari (Case IH Puma 155, AXION 850, New Holland T-7060) uchun $l_{1b} = 0,8$ m, $c_1 = 2,31$ m, $k_1 = 0,425$ m, $l_{2b} = 1,06$ m, $c_2 = 1,55$ m, $k_2 = 0,485$ m qabul qilinib, (2) va (3) ifodalar bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichi va plugining oniy aylanish markazlari traktor g'ildiraklarining bosim markazida joylashishi va demak agregatning to'g'ri chiziqli harakati ta'minlashi uchun ularning pastki osish nuqtalari orasidagi l_1 va l_2 masofalar mos ravishda 57 va 73 cm bo'lishi lozim.

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik

masofa, ish organlarining harakat yoʻnalishi va tikka nisbatan oʻrnatilish burchaklari, disklar orasidagi koʻndalang masofalarni hamda agregat harakat tezligini uning sifat va energetik koʻrsatkichlariga taʼsirini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan bir va koʻp omilli tajribalarning natijalari keltirilgan.

Kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha boʻlgan tik masofani uning ish koʻrsatkichlariga taʼsirini oʻrganish boʻyicha oʻtkazilgan tajribalarda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Ularni tahlil etib, quyidagilarni taʼkidlash lozim: diskli yumshatkichning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha boʻlgan tik masofa 65 cm dan kichik boʻlganda diskli yumshatkich belgilangan (15 cm) chuqurlikni taʼminlagan holda barqaror ishladi.

1-jadval

Kombinatsiyalashgan haydov agregati diskli yumshatkichining tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha boʻlgan tik masofani uning ish koʻrsatkichlariga taʼsiri

Diskli yumshatkichining tayanch tekisligidan pastki oshish nuqtasigacha boʻlgan masofa, cm	Ishlov berish chuqurligi		Diskli yumshatkich ish organlarining tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
	$M_{o'r}$	$\pm\sigma$	
55	16,12/15,79	1,02/1,04	5,65/5,94
60	15,84/15,53	1,06/1,09	5,24/5,61
65	15,50/15,27	1,12/1,14	4,85/5,12
70	14,74/14,39	1,31/1,33	3,72/3,95

Eslatma: suratda $V=6$ km/h va mahrajda $V=8$ km/h boʻlgan.

Diskli yumshatkich ish organlarining harakat yoʻnalishiga nisbatan oʻrnatilish burchagini uning ish koʻrsatkichlariga taʼsirini aniqlash boʻyicha oʻtkazilgan tadqiqotlarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Diskli yumshatkich ish organlarining harakat yoʻnalishiga nisbatan oʻrnatilish burchagini uning ish koʻrsatkichlariga taʼsiri

Diskli yumshatkich ish organlarining harakat yoʻnalishiga nisbatan oʻrnatilish burchagi, °	Tuproqning uvalanish darajasi, %	Ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil boʻladigan notekisliklar balandligi, cm	Diskli yumshatkich ish organlarining tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
15	75,03/76,46	6,79/6,07	3,07/3,37
20	76,56/78,91	5,78/5,22	3,35/3,81
25	79,62/82,38	5,07/4,65	3,55/4,08
30	81,36/83,4	4,51/4,33	3,81/4,35
35	82,12/84,11	4,45/4,32	4,47/4,90

Eslatma: suratda $V=6$ km/h va mahrajda $V=8$ km/h boʻlgan.

Ulardan ko‘rinib turibdiki, diskli yumshatkich ish organlarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 15° dan 35° gacha ortganda tuproqning uvalanish sifati yaxshilangan, ishlov berilgan qatlam yuzasidagi notekisliklarning balandliklari kamaygan, qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi esa ortgan. Buni diskli yumshatkich ish organlarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini ortishi ular tomonidan kesib olinayotgan tuproq palaxsalarining ko‘ndalang kesimlari yuzalarini va ularni tuproqqa ko‘rsatadigan ta’sirini ortishi bilan izohlash mumkin.

Agregat harakat tezligi ortganda tuproqni uvalanish sifati yaxshilangan, ya’ni ishlov berilgan qatlamda o‘lchami 50 mm dan kichik fraksiyalarning miqdori ortgan, undan katta bo‘lgan fraksiyalar miqdori esa kamaygan, qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi ortgan.

Diskli yumshatkich ish organlarining tikka nisbatan o‘rnatilish burchagini ularning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Diskli yumshatkich ish organlarining tikka nisbatan o‘rnatilish burchagini ularning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Diskli yumshatkich ish organlarining tikka nisbatan nisbatan o‘rnatilish burchagi, $^\circ$	Tuproqning uvalanish darajasi, %	Ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo‘ladigan notekisliklar balandligi, cm	Diskli yumshatkich ish organlarining tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
5	83,51/86,34	4,15/3,91	4,49/4,68
10	83,01/84,11	4,41/4,04	3,84/4,03
15	82,38/83,4	5,19/4,81	3,51/3,69
20	80,44/82,38	6,47/5,94	3,39/3,56
25	78,41/78,91	7,89/7,40	3,31/3,45

Eslatma: suratda $V=6$ km/h va mahrajda $V=8$ km/h bo‘lgan.

Ulardan ko‘rinib turibdiki, diskli yumshatkich ish organlarining tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 5° dan 25° gacha ortishi bilan tuproqni uvalanish darajasi kamaygan, ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo‘ladigan notekisliklarning balandligi ta’kidlangan burchak 5° dan 15° gacha ortganda sezilarli o‘zgarmagan, 20° va 25° bo‘lganda esa ortgan, ish organlarining tortishga solishtirma qarshiligi kamaygan. Bularni ish organlarning tikka nisbatan o‘rnatilish burchaklari ortishi bilan ularning tuproqqa botish va uni kesish burchaklari hamda tuproqning ular ish sirtlari bo‘ylab ko‘tarilish balandliklarini kamayishi hamda ularning tuproqqa ta’sir darajasini pasayishi bilan izohlash mumkin.

Diskli yumshatkichning bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko‘ndalang masofani uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

Diskli yumshatkichning bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko'ndalang masofani uning ish ko'rsatkichlariga ta'siri

Diskli yumshatkich ish organlari orasidagi ko'ndalang masofa, cm	Tuproqning uvalanish darajasi, %	Ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklar balandligi, cm	Diskli yumshatkich ish organlarning tortishga solishtirma qarshiligi, kN/m
20	83,90/85,22	4,16/3,80	4,52/4,83
25	83,47/84,31	4,66/4,08	3,59/4,07
30	83,17/83,58	4,96/4,66	3,45/3,84
35	80,24/82,45	5,76/5,05	3,80/4,27
40	78,24/79,78	6,46/6,13	5,09/5,29

Eslatma: suratda V=6 km/h va mahrajda V=8 km/h bo'lgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bitta qatorda joylashgan diskli yumshatkichlar orasidagi ko'ndalang masofani 20 cm dan 40 cm gacha ortishi bilan tuproqning uvalanish sifati yomonlashgan, ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklarning balandligi ortgan, tortishga solishtirma qarshilik oldin kamayib, keyin ortgan.

Diskli yumshatkich ish organlari parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida Xartli-4 rejasi bo'yicha ko'p omilli tajribalar o'tkazildi.

Bunda diskli yumshatkich ish organlarining harakat yo'nalishiga nisbatan o'rnatilish burchagi (X_1), tikka nisbatan o'rnatilish burchagi (X_2), bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko'ndalang masofa (X_3), agregatning harakat tezligi (X_4) uning sifat va energetik ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezonlari sifatida tuproqning uvalanish darajasi, ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklar balandligi hamda qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi olindi.

Tajriba natijalariga ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

tuproqning uvalanish darajasi bo'yicha (%)

$$Y_1 = 80,248 + 2,804X_1 - 1,023X_2 - 2,475X_3 + 0,893X_4 - 1,761X_1^2 + 0,476X_1X_2 - 0,635X_1X_3 + 1,060X_1X_4 - 1,308X_2^2 - 1,072X_2X_4 + 1,560X_3^2 - 1,359X_3X_4 + 1,344X_4^2; \quad (4)$$

ishlov berilgan qatlam yuzasida hosil bo'ladigan notekisliklar balandligi bo'yicha (cm)

$$Y_2 = 5,172 - 1,807X_1 + 1,590X_2 + 1,362X_3 - 0,760X_4 + 1,043X_1^2 + 0,351X_1X_2 + 0,577X_1X_3 + 0,185X_1X_4 + 0,055X_2^2 + 0,906X_2X_3 - 0,360X_2X_4 + 0,453X_3^2 - 0,835X_3X_4 + 0,422X_4^2; \quad (5)$$

qurilmaning tortishga solishtirma qarshiligi bo'yicha (kN)

$$Y_3 = 3,775 + 0,732X_1 - 0,823X_2 - 0,785X_3 + 0,663X_4 - 0,335X_1^2 + 0,514X_1X_2 + 0,272X_1X_3 - 0,147X_1X_4 + 0,613X_2^2 - 0,465X_2X_3 + 0,763X_2X_4 + 0,851X_3^2 + 0,622X_3X_4 + 0,393X_4^2. \quad (6)$$

Ushbu regressiya tenglamalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Olingan (4)-(6) regressiya tenglamalari Y_1 mezon 80 foizdan ko'p, Y_2 mezon 5 cm dan kichik va Y_3 mezon minimal qiymatga ega bo'lishligi shartlaridan birgalikda yechilib, 6-8 km/h harakat tezligida diskli yumshatkich ish organlarining harakat yo'nalishi va tikka nisbatan o'rnatilish burchaklari mos ravishda 31° - 34° va 14° - 16° , diskli yumshatkichning bitta qatorda joylashgan ish organlari orasidagi ko'ndalang masofa 30,1 cm oralig'ida bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Kombinatsiyalashgan haydov agregatining tajriba nusxasi va uning sinovlari natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida kombinatsiyalashgan haydov agregati tajriba nusxasining texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda kombinatsiyalashgan haydov agregati belgilangan texnologik jarayonni ishonchli va sifatli bajardi, uning ish ko'rsatkichlari agrotexnika talablariga to'liq mos bo'ldi.

O'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatadiki, takroriy va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish uchun tuproqqa ishlov berishda ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan haydov agregati qo'llanilganda 1 gektar maydonga sarflanadigan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar 21,98 foizga, mehnat sarfi esa 31,83 foizga kamayadi. Bunda yillik iqtisodiy samara bitta kombinatsiyalashgan haydov agregatiga 82264845,3 UZSni tashkil etdi.

XULOSA

“Kombinatsiyalashgan haydov agregatini ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Respublikamiz sharoitida yerlarga asosiy ishlov berishni traktorning oldiga osilgan diskli yumshatkich va orqasiga osilgan plugdan tashkil topgan kombinatsiyalashgan haydov agregatini qo'llab o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lib, bunda diskli yumshatkich dala yuzasidagi egat va marzalar ko'rinishidagi notekisliklarni tekislashi va dala yuzasida qolgan o'simlik qoldiqlarini maydalashi lozim. Natijada shudgor chuqurligi va yuzasini bir tekis bo'lishi hamda o'simlik qoldiqlari to'liq va chuqur ko'milishi ta'minlanadi.

2. Ishlov berilgan qatlam tubida hosil bo'ladigan notekisliklar balandligi ruxsat etilgan qiymatdan katta bo'lmasligi uchun diskli yumshatkichning birinchi va ikkinchi qatorda joylashgan diskklarining aylanish markazlari orasidagi ko'ndalang masofa, ularning diametrlari va egrilik radiuslari, mos ravishda kamida 6,3 cm, 533 mm va 631 mm bo'lishi lozim.

3. Diskli yumshatkich diskklari orasidagi ko'ndalang va bo'ylama masofalar ularning diametriga, harakat yo'nalishi va tikka nisbatan o'rnatilish burchaklari, hamda ishlov berish chuqurligiga bog'liq bo'lib, ishlov berish jarayonida diskklar orasiga palaxsalar tiqilib qolmasligi uchun ular, mos ravishda, ko'pi bilan 30,1 cm va kamida 83,4 cm bo'lishi lozim.

4. Kombinatsiyalashgan haydov agregatining to'g'ri chiziqli harakatini ta'minlash uchun diskli yumshatkich va plugning pastki osish nuqtalari orasidagi masofalar mos ravishda 57 va 73 cm bo'lishi lozim.

5. 6-8 km/h tezliklar oralig'ida kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifati ta'minlanishi uchun diskli yumshatkichning ish organlari harakat yo'nalishiga nisbatan 31° - 34° , tikka nisbatan esa 14° - 16° burchak ostida o'rnatilishi va ular orasidagi ko'ndalang masofa 25-29 cm oralig'ida bo'lishi lozim.

6. Texnik-iqtisodiy hisoblarni ko'rsatishicha kombinatsiyalashgan haydov agregatini qo'llash bir gektar yerga ishlov berish uchun sarflanadigan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarni 21,98 foizga kamaytiradi va buni evaziga bitta mashinadan 82264845,3 UZS yillik iqtisodiy samara olinadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 05/13.05.2020. Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

НУРМАНОВ СОБИР САДИКОВИЧ

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
КОМБИНИРОВАННОГО ПАХОТНОГО
АГРЕГАТА**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гульбахор – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за В2021.2.PhD/Г2319.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Тухтакузиев Абдусалим
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Толибаев Алисбай Ержанбаевич
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Худайров Анвар Назиржонович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится “29” 05 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства. (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиольский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 497) (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиольский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Автореферат диссертации разослан “12” 05 2025 года.
(Протокол рассылки № 55 от “12” 05 2025 года).

А.А.Ибрагимов

Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Б.П.Артикбаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD по техническим наукам, старший научный сотрудник

Р.Р.Худайкулиев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук, старший научный сотрудник



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире для снижения затрат на выращивание сельскохозяйственных культур и получения высокого урожая ведущее место занимает совершенствование машин и агрегатов для обработки почвы, применения передовых технологий и современных технических средств. Учитывая, что в настоящее время во всем мире ежегодно обрабатывается более 1,6 миллиарда гектаров земли¹ для получения урожая различных сельскохозяйственных культур, разработка машин и устройств для обработки почвы с высоким качеством работы, производительностью и энерго-ресурсосбережением является одной из важнейших задач. В этом направлении достигнуты определённые успехи в развитых зарубежных странах, в частности в США, Германии, Нидерландах, Англии, Италии, Российской Федерации и Китае. В этих странах при вспашке и обработке почвы перед посевом большое внимание уделяется применению комбинированных машин и агрегатов, состоящих из рабочих частей, навешиваемых на трактор спереди и сзади.

В мире ведутся целевые научно-исследовательские работы по разработке ресурсосберегающих технологий обработки земель и технических средств для их реализации. При этом создание комбинированных машин и агрегатов, выполняющих технологические процессы за один проход по полю, на сегодняшний день считается одним из приоритетных направлений. В частности, актуальной задачей является разработка комбинированного пахотного агрегата, выполняющего все технологические процессы по подготовке полей к вспашке и самой вспашке с минимальными энергозатратами, а также обоснование параметров его рабочих органов, обеспечивающих ресурсосбережение при взаимодействии с почвой.

В сельскохозяйственном производстве республики проводятся широкомасштабные мероприятия по снижению затрат труда и энергии, экономии ресурсов, возделыванию сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий, в частности при обработке почвы особое внимание уделяется разработке технических средств, обеспечивающих качественное выполнение всех технологических процессов с минимальными затратами энергии. В стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы намечены задачи в частности, «... внедрение механизмов уменьшения роли государства и повышения инвестиционной привлекательности отрасли, предусматривающих увеличение потока частного инвестиционного капитала для модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой отрасли, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»². При выполнении этих задач одной из важных задач является разработка комбинированной

¹ <https://www.fao.org/3/i1688r/i1688r03.pdf>

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП 5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

